

## ABDULLA AVLONIY – MA’RIFAT VA MILLIY ONG UYG‘OTUVCHISI SIFATIDA

G’afurova Robiya Nasim qizi

Ilmiy rahbar.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti o’qituvchisi.

Email: [robiyagafurova2801@gmail.com](mailto:robiyagafurova2801@gmail.com)

Rustamov Firdavs Rafael o’g’li

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti talabasi.

Email: [rustamovfirdavs588@gmail.com](mailto:rustamovfirdavs588@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1536704>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada o’zbek milliy uyg‘onish davrining yetuk namoyandasini, ma’rifatparvar adib, pedagog va jamoat arbobi Abdulla Avloniy hayoti, ijodi, pedagogik qarashlari hamda ijtimoiy faoliyatini zamонавиyl ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Muallif asarlari, faoliyatining dolzarbligi, bugungi ta’lim va tarbiya tizimidagi ahamiyati haqida izchil tahliliy fikrlar yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Avloniy, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, pedagogika, adabiyot, ijtimoiy faoliyat, zamонавиyl ta’lim.

## ABDULLA AVLONIY – AS A CHIEF OF ENLIGHTENMENT AND NATIONAL AWAKENING

*Abstract. This article analyzes the life, work, pedagogical views and social activities of Abdulla Avloni, a prominent figure of the Uzbek national revival, an enlightened writer, educator and public figure, based on a modern scientific approach. Consistent analytical views are given about the author’s works, the relevance of his activities, and his significance in today’s education and upbringing system.*

**Keywords:** Abdulla Avloni, enlightenment, national revival, pedagogy, literature, social activities, modern education.

## АБДУЛЛА АВЛОНИЙ – КАК ГЛАВА ПРОСВЕЩЕНИЯ И НАЦИОНАЛЬНОГО ПРОБУЖДЕНИЯ

*Аннотация. В статье на основе современного научного подхода анализируются жизнь, творчество, педагогические взгляды и общественная деятельность Абдуллы Авлони — видного деятеля узбекского национального возрождения, просвещенного писателя, педагога и общественного деятеля. Представлены последовательные аналитические взгляды на творчество автора, актуальность его творчества, его значение в современной системе образования и воспитания.*

**Ключевые слова:** Абдулла Авлони, просвещение, национальное возрождение, педагогика, литература, общественная деятельность, современное образование.

XX asr boshlarida Turkiston zaminida yuzaga kelgan ma’rifiy uyg‘onish harakati vakillari orasida Abdulla Avloniyning tutgan o‘rni beqiyosdir. 1878 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan Avloniy yoshligidan ilm-fanga oshno bo‘lib, arab va fors tillarini puxta egallagan, sharq adabiyoti va madaniga chuqur qiziqqan.

Uning ijodiy va ijtimoiy faoliyatni Turkistonda milliy o‘zlikni anglash, xalqni uyg‘otish, yosh avlodni tarbiyalash va ta’lim tizimini isloh qilish kabi dolzarb vazifalarga xizmat qilgan. Avloniy o‘zining adabiy merosida asosan millat, vatan, ma’rifat va axloqiy tarbiya masalalarini ilgari surgan.

Uning eng mashhur asari – “Turkiy guliston yoxud axloq” – o‘zbek pedagogik fikr tarixida ilk axloqiy qo‘llanmalardan biri sifatida qadrlanadi. Ushbu asarda muallif yosh avlodni halollik, vatanparvarlik, odob-axloq, ilmga intilish ruhida tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi.

Avloniy fikricha, ma’rifatsiz xalq – hayotiy kurashda zaif, mustamlaka ostida yashashga mahkum bo‘ladi. Avloniy ijodiy faoliyatida adabiyot vositasida xalqni uyg‘otish, jaholatga qarshi kurashish, o‘zligini anglash, milliy birlikni mustahkamlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratadi. She’r va maqolalari orqali xalqni tafakkurga chorlab, ma’naviy tiklanishning zarurligini targ‘ib etadi.

Ayniqsa, “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” nomli o‘quv qo‘llanmalari orqali u zamonaviy ta’limning asoslarini yaratgan. U ilmnинг jamiyatdagi o‘rni, muallimning vazifasi, o‘quvchi shaxsining shakllanishi borasida o‘z zamonasidan ancha oldinda bo‘lgan fikrlarni ilgari surgan. Avloniy faqat adib emas, balki amaliy pedagog ham edi. U Toshkentda jadid maktablarini tashkil etib, yangi usulda ta’lim berishni joriy qildi.

Bu maktablarda rus-tuzem maktablaridan farqli o‘laroq, tabiiy fanlar, geografiya, tarix, hisob, musiqa va jismoniy tarbiya kabi fanlar ham o‘qitilgan. Bu esa o‘z zamonasi uchun ilg‘or va jasoratli qadam edi. Avloniy o‘qituvchini jamiyatdagi eng muhim kasb egasi deb bilgan. U: “Muallim – millatni uyg‘otuvchi, uning kelajagini yaratadigan me’mordir,” degan edi.

Avloniy nafaqat maktab ochish, darslik yozish bilan kifoyalanmagan, balki ommaviy axborot vositalari orqali ham ijtimoiy fikrga ta’sir o‘tkazgan. U “Shuhrat”, “Taraqqiy”, “Osiyo” kabi matbuot nashrlarida faol publitsistik maqolalar chop etgan, xalq orasida savodsizlik, islohotlarga qarshilik, ayollar mavqeining pastligi, bolalar huquqlarining poymol etilishi kabi muammolarni ko‘tarib chiqqan. Uning fikricha, taraqqiyot sari yo‘l – ma’rifat, bilim, erkin tafakkurdan boshlanadi. Abdulla Avloniy faoliyati Turkistondagi jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u mazkur harakatning yetuk vakillaridan biri sifatida siyosiy va ijtimoiy maydonda ham faol ishtirok etgan. U Ismoil G‘aspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadidlar bilan hamkorlikda ish olib borgan, ularning g‘oyaviy qarashlariga yaqin turgan.

Aynan Avloniy asos solgan “Turon” teatr truppassi orqali o‘zbek sahna san’ati yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunda Avloniy merosi, uning g‘oyalari va asarlari milliy ta’lim tizimida, ayniqsa, o‘quv dasturlar, metodik qo‘llanmalar va tarbiya konsepsiyalarida keng qo‘llanmoqda. “Turkiy guliston”dagi axloqiy saboqlar zamonaviy maktablarda, ayniqsa, ona tili va adabiyot, tarix, “Tarbiya” fanlari doirasida qo‘llanilmoqda. U ilgari surgan muallim sha’ni, vatanparvarlik, axloqiy yetuklik g‘oyalari hali-hanuz o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Shuningdek, Avloniy ijodi zamonaviy ta’lim islohotlari bilan ham uyg‘unlikda o‘rganilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ta’lim konsepsiyasida ta’limning insonparvarlik, vatanparvarlik va ma’naviy yetuklik tamoyillari aks ettirilgan bo‘lib, bu jihatlar Avloniy g‘oyalariaga hamohangdir.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy – o‘zbek xalqining tarixida ma’naviy va ilmiy uyg‘onishning, milliy o‘zlikni anglashning asoschisi bo‘lgan buyuk shaxsdir. Uning hayoti va ijodi zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida yoshlarga namuna, o‘qituvchilarga esa ilmiy-pedagogik yo‘l ko‘rsatkich bo‘lib qolmoqda.

Bugun biz uning boy merosini chuqur o‘rganib, ta’lim va tarbiya tizimiga tatbiq etar ekanmiz, aslida milliy tiklanish va zamonaviy taraqqiyot yo‘lida muhim qadam tashlaymiz.

**REFERENCES**

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Qayumov A. Jadidchilik va Avloniy merosi. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Yusupov B. O‘zbek pedagogik tafakkuri tarixidan lavhalar. – Toshkent: TDPU, 2012.
4. Normatov O. Milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik harakati. – Samarqand: Registon, 2018.
5. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Sultonova D. O‘zbek jadidlari: ta’lim, adabiyot va ijtimoiy g‘oyalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
7. Tursunov B. Jadidchilik – yangi o‘zbekchilik sari. – Buxoro: Nurli olam, 2016.